


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60310400 – Sotsiologiya bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining**

**MALAKA TALABI**

**Toshkent – 2024**



**ISHLAB CHIQUILGAN VA KIRITILGAN:**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti:

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil  
"25" 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", "O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>9</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>10</b>



## **1. Umumiy tavsifi**

60310400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60310400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, “Yuksalish” umummilliy harakati, Mudofaa vazirligi, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyat organlari, marketing va konsalting xizmat ko'rsatish, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida yo'nalishga doir masalalarni yechish majmuyini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligida mutaxassis yoki ilmiy xodim, mudofaa vazirligi ilmiy tadqiqot markazlarida ilmiy xodim, “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazida, nodavlat tashkilotlari va hayriya jamg'armalarida mutaxassis, statistika qo'mitasi tizimlarida, mahalla yetiligi tarkibida xotin-qizlar va yoshlar ishlari bo'yicha mutaxassis, marketing va konsalting xizmat ko'rsatish sohasida sotsiolog-analitik, mahalliy hokimiyat organlarida monitoring bo'limi mutaxassisi, oila va gender ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim, siyosiy partiyalar va “Yuksalish” umummilliy harakatlarida konsultant.

60310400-Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi

### **1.2.3. Kasbiy faoliyat turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy- konstruktorlik;*



- *axborot-tahliliy faoliyat;*

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60310400 – Sotsiologiya ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Ilmiy sohada namunaviy metodikalar asosida ilmiy-tadqiqotlarni olib borishi, ularning natijalarini qayta ishlab, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalarini ilgari sura olish:

fundamental va amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tayyorlash va o’tkazishda tadqiqot dasturini tuzish, birlamchi ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash va tahlil qilish bosqichlarida ishtirok etish;

zamonaviy informatsion texnologiyalar, hisoblash texnikasi vositalari, kommunikatsiya va aloqalarni qo’llash asosida keng turkumdagi manbalarni jalb qilish orqali ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va boshqa empirik ma’lumotlarni qayta ishlash:

sharh va annotatsiyalar tayyorlashda qatnashish;

sotsiologik tadqiqotlar hamda sotsiologik nazariyalarning tushuntiruvchi imkoniyatlaridan foydalangan holda boshqa empirik ma’lumotlarni interpretatsiya qilish;

tadqiqot ishlari natijalari bo’yicha hisobotlar, analitik ma’lumotnoma, kasbga oid nashrlar, informatsion ma’lumotlar tayyorlashda ishtirok etish;

tadqiqot natijalarini taqdim etish, o’tkazilgan tadqiqot mavzusi bo’yicha xabarlar va ma’ruzalar bilan turli ilmiy doiralarda qatnashish va ilmiy maqolalar chop etish qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

##### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

ijtimoiy sohalarni monitoringini ta’minlaydigan ma’lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish, unga boshqaruv ta’sir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda boshqaruv ta’sir samarasini baholash, shu bilan birga ma’lumotlar manbalarini ularning zaruriyligi, yetarliligi va ishonchliligini baholash maqsadida audit qilish;

hokimiyat va boshqaruv, mahalliy o’zini o’zi boshqaruv organlarida, tashkilot va muassasalarning ma’muriy-boshqaruv bo’linmalarida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish;

ilmiy konsultatsiya va ekspertiza, ma’lumot almashinuvlari masalalari bo’yicha ilmiy-tadqiqot muassasalari va informatsion-analitik xizmatlar bilan aloqalarni tashkil etish hamda ta’minlashda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

##### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatda:**

joriy va davriy ko’rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma’lumotlar bazasini yaratish;

tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik instrumentariylar, meyoriy hujjatlar, informatsion ma’lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

ijtimoiy ko’rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo’yicha tadqiqotlar tashkil etish va o’tkazishda ishtirok etish;

jamoatchilik fikrini o’rganish bo’yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarqatishda ishtirok etish;

turli maqsadli auditoriyalar uchun marketing tadqiqotlarni ilmiy-metodik, texnik va informatsion jihatdan ta’minlash, marketing xizmatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

##### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**



Loyihalar samaradorligini baholash;  
axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;  
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;  
tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;  
kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanish;  
meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;  
tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;  
muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;  
dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallashi;  
ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish;  
tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lish, ulardan ijtimoiy hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olish;  
insonlar orasidagi jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatda hisobga olish;  
axborotni to'plash, tahlil qilish, saqlash, ularga ishlov berish va unumli foydalanish metodlarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olish;  
bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;  
yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olish, o'zini takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;  
tashkilot va muassasalarda sotsiologik tadqiqotlar metodlarini aniqlash va tadqiqot olib borish;  
sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasini mustaqil olib borish;  
tadqiqotdan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish va yangi zamonaviy axborot tizimi metodlarini qo'llash;  
kompyuter texnologiyalari va dasturlash;  
texnik ekspluatatsiyasi va tamoyillarini tuzish hamda loyihalash;  
bilimlar injeneriyasi;  
tizimli yondashuv mexanizmlarini tadbiiq etish;  
dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi va injeneriyasi;  
inson va jamiyat o'zaro munosabatlarini ratsionallashtirish uchun tadbiiq etish usullari.  
ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;  
ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;  
ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi.



ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malaka amaliyoti - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4920</b>	<b>164</b>	
1.01	JMS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.02	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.03	RAT1106	Raqamli axborot texnologiyalari	180	6	1
1.04	O'YT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.05	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06	XT1204	Xorijiy til	120	4	2
1.07	DIN1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.08	OGS1106	Oila va gender sotsiologiyasi	180	6	1
1.09	STA1110	Sotsiologiya tarixi	300	10	1,2
1.10	UMS1116	Umumiy sotsiologiya	480	16	1,2,3
1.11	JAF1206	Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi	180	6	2
1.12	KOS1304	Konfliktlar sotsiologiyasi	120	4	3
1.13	IST1306	Ijtimoiy statistika	180	6	3
1.14	MBS1308	Mehnat va bandlik sotsiologiyasi	240	8	3,4
1.15	IJS1308	Ijtimoiy siyosat	240	8	3,4
1.16	STM1318	Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi	540	18	3,4,5
1.17	TAS1406	Ta'lim sotsiologiyasi	180	6	4
1.18	HUS1506	Huquq sotsiologiyasi	180	6	5
1.19	TAS1604	Tashkilotlar sotsiologiyasi	120	4	6
1.20	SMQ1512	Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish	360	12	5,6
1.21	SXM1606	Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi	180	6	6
1.22	DIS1706	Din sotsiologiyasi	180	6	7
1.23	HAS1706	Harbiy sotsiologiya	180	6	7



1.24	SHS1706	Shahar sotsiologiyasi	180	6	7
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	4,5,6,7
Kvalifikatsiya:		Sotsiolog, tahlilchi			
		<b>Jami</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Malaka amaliyot	840	28	2,4,6,8
		BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)	240	8	8
		<b>Jami</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

\*\* Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrga to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrga qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


### **Tayanch so'zlar:**


Sotsiologiya predmeti, ijtimoiy tizim, sotsial voqelik, ijtimoiy-madaniy tizim, jamiyat, shaxs, individ, inson, ijtimoiy muhit, shaxs sotsializatsiyasi, resotsiolizatsiya, desotsializatsiya, sotsial status va rollar, tabiiy status, belgilanadigan va erishiladigan statuslar, sotsial jamoa, sotsial guruh, birlamchi va ikkilamchi guruh, rasmiy va norasmiy guruh, katta va kichik guruh, referent guruh, inguruh va autguruh, kvaziguruh, sotsial kategoriya, sotsial agregatsiya, sotsial doira, sotsial institut, sotsial tashkilot, byurokратиya, sotsial boshqaruv, sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat, sotsial munosabat, sotsial aloqa, sotsial kontakt, sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik, sotsial differensiatsiya, sotsial sinf, deviant xulq-atvor, dilekvent xulq-atvor, sotsiologik tadqiqot, sotsiologik tadqiqot metodologiyasi, metodikasi, texnikasi va protsedurasi, sotsiologik tadqiqot dasturi, sotsiologik tadqiqotning ilmiy gipotezasi, sotsial hodisalarni o'lchash, tanlash, reprezentativlik, kish kartasi, so'rov metodi, anketa (so'rov varaqasi), intervyu, intervyuyer, respondent, supervayzer, analitik. sotsiometriya, fokus-guruh, moderator, semantik differensiatsiya, ekspert baholash usuli, sotsial eksperiment, biografik metod, hujjat, kontent-analiz, oilaning reproduktiv funksiyasi, sotsial statistika, statistik kuzatuv, saralangan kuzatuvlar, indekslar, jamoatchilik fikri, sotsial xizmat, sotsial menejment, imkoniyati cheklangan fuqarolar, konflikt, konflikt paradigmasi, ommaviy harakatlar, konsensus.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


O'zbekiston Milliy universiteti


Rektor  I. Madjidov  
2024 yil 19.06  
M.O.



KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev  
2024 yil  
M.O.



“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik  
fikrini o'rganish markazi

Direktor  N. Raximova  
M.O.



Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti

Rektor  Sh. Sirojiddinov  
2024 yil  
M.O.





**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**  
**60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab**  
**chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

2024-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori N.Raximova, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda O‘zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan talablar bilan solishtirib diqqatga tavsia etish mumkin.

**“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori**

**O‘zbekiston Milliy universiteti rektori**

N.Raximova

Sh.Sirojiddinov

I.Madjidov





**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida  
ishlab chiqilgan 60310400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar  
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar  
yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**T A Q R I Z**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60310400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5847-son Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori hamda O'zR OO'MTV ning 2018-yil 6-iyundagi "Oliy ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida" gi №87-02-1322-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60310400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 6031100400 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablari qoniqtiradigan tasdiqlashni taklif qilaman.

**"Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi direktori**



**N.Raximova**



Р.О.У.О.В. 02 ТИЗИМИ ОРҚАТИ ЭФИ УБИЛАН ТАСДИҚЛАНАДИ, АУЖЖАТ КОДИ. VVV414/4404

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan 60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**T A Q R I Z**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 3-apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan. Malaka talablarini ishlab chiqishda ta‘limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta‘lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta‘lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60310400 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini oliy ta‘lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablari qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i**



**sots.f.n. R.Azizova**